



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

HAMID OLIMJONNING “RAKSANANING KO‘Z YOSHLARI” BALLADASIDA MILLIYLIKNING POETIK TASVIRI

Xajiyeva Difuza Adambayevna
Urganch davlat pedagogika institute, dotsent

Annotatsiya

Maqolada Hamid Olimjonning “Raksananing ko‘z yoshlari” (1944) balladasi misolida milliylikning poetik tasvir mexanizmlari – makon (Shahrixon), marosim va e’tiqod belgilari, xalqona leksika, mahalla ijtimoiy psixologiyasi, obrazlar tizimi hamda ramziy detallar (tugunchak, tuproq, tong) orqali namoyon bo‘lishi tahlil qilinadi. Tadqiqot badiiy matnni yaqin o‘qish (close reading), semantik-ritmik tahlil va madaniy-kontekstual yondashuvlarga tayangan holda olib borildi.

Kalit so‘zlar: Hamid Olimjon, ballada, milliylik, milliy kolorit, Shahrixon, mahalla, marosim, poetik tasvir, urush davri adabiyoti.

ПОЭТИЧЕСКОЕ ИЗОБРАЖЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ ПРИНАДЛЕЖНОСТИ В БАЛЛАДЕ ХАМИДА ОЛИМДЖОНА «СЛЁЗЫ РАКСАНЫ»

Хаджиева Дилфуза Адамбаевна
Ургенчский государственный педагогический институт, доцент

Аннотация

В статье на примере баллады Хамида Олимджона «Слёзы Раксаны» (1944) анализируются поэтические механизмы изображения национального своеобразия — через пространство (Шахрихан), элементы обрядов и верований, народную лексику, социальную психологию махалли, систему образов и символические детали (узелок, земля, рассвет). Исследование проведено с опорой на метод близкого чтения (close reading), семантико-ритмический анализ и культурно-контекстуальный подход.

Ключевые слова: Хамид Олимджон, баллада, национальная идентичность, национальный колорит, Шахрихан, махалля, обряд, поэтическое изображение, литература военного периода.

POETIC DEPICTION OF NATIONALITY IN HAMID OLIMJON'S BALLAD "RAKSANA'S TEARS"

Xajiyeva Difuza Adambayevna
Urgench State Pedagogical Institute, Associate Professor

Abstract

The article analyzes the poetic mechanisms of representing national identity in Hamid Olimjon's ballad “Raksana's Tears” (1944). The study examines how national specificity is conveyed through spatial imagery (Shahrixon), ritual and belief elements, folk vocabulary, the social psychology of the mahalla, the system of characters, and symbolic details (bundle, soil, dawn). The research is based on close reading, semantic-rhythmic analysis, and a cultural-contextual approach.

Keywords: Hamid Olimjon, ballad, national identity, national color, Shahrixon, mahalla, ritual, poetic representation, wartime literature.

Hamid Olimjon ijodida urush yillarining ruhiy manzarasi faqat siyosiy shior yoki front tasviri bilangina emas, balki xalqning ichki axloqiy kuchi, mehr-oqibat va hamjihatlik tajribasi orqali ham badiiylashtiriladi. “Raksananing ko‘z yoshlari” balladasi shunday asarlardan bo‘lib, unda urush tufayli begona yurtga ko‘chib kelgan ukrain qizi Raksananing fojeasi Shahrixon (Farg‘ona vodiysi) muhitida tasvirlanadi.¹

Ballada markazida bir qarashda shaxsiy iztirob – go‘dak Vovaning o‘limi turadi, ammo mazkur iztirob mahalla, mozop (qabr) va tuproq obrazlari vositasida kengayib, xalqning milliy mentalitetini (mehmondo‘stlik, muruvvat, bag‘rikenglik) ochishga xizmat qiladi. Shu ma’noda asar nafaqat “xalqlar do‘stligi” g‘oyasining urush davridagi badiiy ifodasi, balki milliylikning poetik modelidir.²

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, ballada ko‘pincha ideologik “do‘stlik” konsepti doirasida o‘qiladi. Vaholanki, matnning badiiy tuzilishi (ritm, ramz, xalqona nutq) milliylikni oddiy tashviqot emas, jonli psixologik tajriba sifatida ko‘rsatadi. Shunday ekan, ballada milliylikning poetik tasviri qanday vositalar bilan qurilganini, qaysi detallar milliy kolorit yaratishini va bu kolorit umuminsoniy ma‘no bilan qanday uyg‘unlashishini aniqlash zarur.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O‘zbek adabiyotshunosligida A.Karimov, Sh.Abduraxmonov, B.Rahmonov, X.Nazarov, M.To‘rayev, M.Qodirova, N.Karimov, Zulfiya, S.Mamajonov, S.Azimov, N.Namozov, S.Boboyeva, B.Umurqulov, U.Raximova tomonidan Hamid Olimjon ijodining ayrim jihatlarini o‘rganilgan.

Milliylik (milliy kolorit) esa badiiy matnda xalq psixologiyasi, turmush tarzi, maishiy-madaniy hayot, an‘ana va urf-odatlarining obraz, syujet, kompozitsiya, til hamda uslub tarkibida tabiiy singdirilishi orqali yuzaga keladi. Demak, milliylikni faqat etnografik “bezak” emas, balki matnning ichki tuzilishi, nutq jarayoni va qahramonlar xatti-harakatini boshqaruvchi semantik mexanizm sifatida o‘qish maqsadga muvofiq.^[4]

Maqolada semantik-kompozitsion tahlil, madaniy-kontekstual izoh, motivlar tahlili kabi metodlardan foydalanildi.

NATIJALAR

Ballada – liro-epik tur doirasidagi ixcham, keskin dramatik tugunli janr bo‘lib, unda voqea odatda favqulodda holat (fojea, jang, fojiali uchrashuv) atrofida jamlanadi. Janrning tabiati lirik hissiyot va epik voqelikni birlashtirishga (sintez) asoslanadi; shuning uchun balladada syujet “tez” harakat qiladi, obrazlar esa ko‘pincha ramziy yuklama bilan chuqurlashadi.^[4]

Ushbu maqolada balladadagi milliylik 3 qatlamda ko‘rib chiqiladi:

- Makon qatlamida: Shahrixon va uning “qiyshiq, tor ko‘cha”lari, so‘y, dala, mozop kabi lokuslar.
- Madaniy-kodeks qatlamida: dafn marosimi, “musulmon mozori / xristian mozori” qarama-qarshiligi, duo va “omin” motivi.
- Poetik qatlamda: tugunchak, tuproq, tong, qushlar, kabutar, shabada kabi ramziy detallar va ritmik qurilish.

MUHOKAMA

Ballada syujeti urushning “ko‘chirish” (evakuatsiya) oqibatida yuzaga kelgan hayotiy vaziyatdan boshlanadi: Raksana Shahrixoniga musofir mehmon bo‘lib keladi, biroq uning boshiga eng og‘ir sinov – farzandining o‘limi tushadi. Syujetning keskinligi shundaki, ona farzandini dafn etish uchun “xristian mozori” izlaydi, lekin Shahrixonida bunday mozor yo‘q. Ana shu tugun Raksananing ichki talvasasi va mahalla jamoasining hamjihat harakatini (Sora boshchiligidagi) bir vaqtning o‘zida ochib beradi.^[3]

Obrazlar tizimi uch markaz atrofida quriladi:

- Raksana – musofir ona, iztirobning “shaxsiy” ko‘rinishi;
- Sora – o‘zbek qizi, mahalla hamjihatligining harakatga keltiruvchi kuchi;

- nuroniy chol – e’tiqod va muruvvatning ramziy timsoli. Kirish maqolada ham balladaning markazida aynan shu uch obraz orqali do’stlikning ijtimoiy-psixologik negizlari ochilishi ta’kidlanadi.

Kichkina bir tugunchak

Raksana qo’llarida...[1]

Matnning dastlabki satrlaridayoq tugunchak detali (qo’lda ko’tarilgan, bag’riga bosilgan narsa) syujetning asosiy “og’irligi” – yo’qotish fojeasini jismoniy lashtiradi. Tugunchak bir tomondan – go’dakning jasad, ikkinchi tomondan – ona xotirasi va vijdonining “yuk”i; uchinchi tomondan esa urushning butun xalq ustiga tushirgan og’ir sinovi ramzidir.

Aylanadi quyundak

Shahrixon yo’llarida.[1]

Balladadagi milliylikning birinchi tayanch nuqtasi – makon. Shoir voqeani abstrakt “shahar”da emas, konkret toponim – Shahrixon joylashtiradi. Bu tanlov ikki vazifani bajaradi: urush davrining real tarixiy holatini (migratsiya, ko’chirish) aniq lokatsiyada yerlashtiradi; o’zbek muhitining mahalliy koloritini ko’cha, so’y (ariq), dala va mozor kabi detallar orqali ko’rsatadi.

U tinmasdan qiyshiq, tor

Ko’chalarga kiradi. [1]

“Qiyshiq, tor ko’cha” detali shaharning me’moriy “xususiyati”ni emas, mahalla tuzilishini bildiradi: tor ko’chalar – yaqinlik, bir-birini ko’rib turish, qo’ni-qo’shnichilik nazorati va yordam mexanizmi. Raksananing tun bo’yi ko’chada sarson yurishi esa bu “yaqin” makonda ham musofirning ichki yolg’izligi qanchalik kuchli ekanini sezdiradi: mahalla bor, ammo qayg’u uni vaqtincha “yolg’iz” qiladi.

Makon poetikasida milliylikni kuchaytiruvchi unsurlar:

- Toponim: Shahrixon – urush yillarida vodiy qishloq-shaharlarining real muhitini eslatadi.

- Lokuslar: so’y (ariq), dala daraxtlari, mozor – o’zbek kundalik hayotining tayanch joylari.

- Mahalla dinamikasi: qo’shnilar uyg’onishi, “g’avg’o” ko’tarilishi, hamma birgalikda izga tushishi.

- Tong-tun kontrasti: “zimziyo kecha”dan “oppoq tong tuman”iga o’tish – iztirob va umid ritmi.

Balladadagi Sora obrazi milliylikning ijtimoiy-axloqiy “matritsasi”ni ko’rsatadi. Raksana “musofir mehmon” sifatida tasvirlanishi bejiz emas: o’zbek madaniyatida mehmon – muqaddas maqom, uni yolg’iz qoldirish uyat va vijdon masalasi. Shu bois Sora Raksananing xonasini ochiq ko’rib, darhol tashvishga tushadi, qo’shnilarni uyg’otadi, hammani izga safarbar qiladi.

Bizning musofir mehmon?[1]

Birgina “bizning” olmoshi Soraning munosabatini milliy-psixologik jihatdan ochadi: musofir endi “begona” emas, mahalla ko’zida “bizniki”ga aylanadi. Bu o’zbekona mulkchilik emas, axloqiy mas’uliyat ifodasidir.

Taom o’tmas tamoqdan

Raksanani topmasam.[1]

Soraning qasami – oddiy hissiy reaksiya emas, jamoa etikasi. “Taom o’tmas” iborasi xalqona frazeologizm sifatida milliy nutq koloritini kuchaytiradi va vaziyatni dramatik darajaga ko’taradi. Bunday frazeologik birliklar balladada milliylikni “til” orqali berishning samarali usuliga aylanadi.

Balladaning markaziy konfliktini marosimiy kodekslar to’qnashuvi tashkil etadi: Raksana xristiyan an’anasi bo’yicha farzandini dafn etishni istaydi, ammo Shahrixon

“xristiyan mozori” yo‘qligi uni tang holatga soladi. Shoir bu holatni diniy qarama-qarshilik sifatida emas, urushning odamlarni “tuproq” va “mozor” darajasida ham yaqinlashtirgan fojea sifatida beradi.

Bu yerda qayda bo‘lsa
Xristiyan mozori.
Musulmonlar bolamni
Qo‘yar-mi o‘z yeriga?[1]

Raksananing savoli – begona muhitdan qo‘rquv va e‘tiqodiy noaniqlikdan tug‘ilgan ichki monolog. Bu yerda milliylik ikki xil ko‘rinishda namoyon bo‘ladi:

- diniy marosimga hurmat;
- o‘zga marosimga ham bag‘rikenglik.

Shoir masalani polemikaga aylantirmaydi; aksincha, o‘zbek muhitining insoniy “panoh” berish xususiyatini yoritadi.

Nuroniylar choli obrazi shu bag‘rikenglikning poetik ifodasidir. U Raksananing holatini “savol” bilan emas, sukunat va e‘tibor bilan qabul qiladi; eng muhim jihat – u bolani “muqaddas mozoringa” qabul qiladi va duo qiladi. Bu epizod milliy marosim (mozor, duo, “omin”)ni umuminsoniy hamdardlik darajasiga ko‘taradi.

Bu tuproq endi senga, ona qizim, yot emas.[1]

“Tuproq” metaforasi milliy tasavvurdagi ona zamin konseptini uyg‘otadi. Cholning “ona qizim” deyishi esa musofirni “o‘z”lashtirish emas, uni insoniy qadr bilan qabul qilishdir. Milliylik bu yerda xos urf-odat bilan cheklanmay, umuminsoniy mehrga ko‘prik bo‘ladi.

Bilsang, mening ham o‘g‘lim
Qoldi sening yeringda.
Taqdirini qildi teng,
Mozorini ham qo‘shdi. [1]

Mazkur misralarda urushning “tenglashtiruvchi” fojiasi poetik umumlashma darajasiga chiqadi: farzandini yo‘qotgan Raksana yolg‘iz emas – chol ham o‘g‘lidan ayrilgan. Ularning dardi millat va din chegarasidan o‘tib, “mozor” orqali bir nuqtaga jamlanadi. Bu, bir tomondan, sovet davri “xalqlar do‘stligi” g‘oyasiga hamohang; ikkinchi tomondan esa milliy-axloqiy qadriyatlar (hamdardlik, muruvvat)ning real hayotiy ildizini ko‘rsatadi.

Balladada milliylik faqat syujet va marosimga “yopishtirilgan” tashqi belgi emas. U poetik detallar tizimi orqali ishlaydi: tugunchak, quyun, tong tumani, shabada, qushlar, kabutar, qora tuproq, g‘uncha-gul motivlari milliy tasavvur (ona zamin, tabiatga yaqinlik, so‘zning sodda va ta’sirchanligi) bilan uzviy bog‘lanadi.

Kiprigini ho‘l qilgan
Shabnammi va yoki yosh? [1]

Bu misralarda shabnam–yosh parallelizmi ishlaydi: tabiat hodisasi (shabnam) inson hissi (ko‘z yoshi) bilan tutashadi. Natijada iztirob “shaxsiy” bo‘lib qolmay, butun makonga singadi. Shoirning o‘ziga xos jihati shundaki, u milliy tabiat manzarasini (dala, shabada, tong) psixologik tasvirga xizmat qildiradi.

Tong qushlari havoda
Uchishib yig‘lashadi. [1]

Qushlarning “yig‘lash”i – personifikatsiya bo‘lib, voqea fojeasini yanada umumlashtiradi. Shu bilan birga, qush va tong motivlari turkiy xalq og‘zaki ijodidagi “yangi kun”, “umid” semantikasini ham eslatadi. Demak, poetik tasvir milliy folklor xotirasiga ulanadi.

Qorong‘ilik yo‘qolib,
Tong tamom yoyiladi.[1]

Balladaning yakunidagi tong motivi fojea ustidan “umid”ning g‘alabasini bildiradi. Bu – urush davri poetikasiga xos optimistik intonatsiya. Biroq u sun‘iy emas: tong, quyosh, uyga

qaytish detali (odamlar uylariga qaytadi) hayotning davomiyligini, mahalla hayotining tiklanishini tasdiqlaydi.

Ballada tili sodda, xalqona va ogʻzaki nutqqa yaqin. Shoir “yuqori” poetik lugʻat bilan cheklanmaydi; kundalik soʻzlashuvdagi murojaat va savol shakllarini (kelinchak, otajon, jondan, nega?) faol ishlatadi. Buning natijasida milliylik “til” qatlamida ham seziladi: matn oʻzbekcha tafakkur ritmini, soʻzlashuvdagi hissiy urgʻularni koʻrsatadi.

Soʻylagil, ey kelinchak,

Buncha chopasan nega? [1]

Murojaatning “kelinchak” shakli oʻzbek ijtimoiy muhitidagi yosh ayol obraziga xos nomlashni beradi. Raksana ukrain qizi boʻlsa-da, matn uni mahalla koʻzi bilan koʻradi va shu nomlash orqali musofirni mahalliy munosabatlar tizimiga kiritadi. Bu ham milliylikning poetik texnikasi: begona shaxsga milliy muhitning “til”i orqali yaqinlashish.

Dialog va ichki monologlar koʻp. Raksananing ichki monologi lirik drammatizmni kuchaytirsa, Sora va qoʻshnilar nutqi epik harakatni jadallashtiradi. Janr (ballada) uchun xos boʻlgan bu tezkor intonatsiya keskin syujet bilan hamohang.[3]

“Raksananing koʻz yoshlari” balladasida milliylikni “ichkariga yopiq” identitet sifatida emas, insoniy hamdardlikka ochiq axloqiy dunyoqarash sifatida taqdim etadi. Asarda “begona”likni bildiruvchi soʻzlar (“musofir”, “mehmon”, “yurtim uzoq”) Raksananing iztirobi kuchaygan paytda chiqadi, ammo cholning “ona qizim” deya murojaati va “bu tuproq... yot emas” mazmunidagi poetik formula begonalikni yoʻq qiladi.[1]

Shu nuqtada milliylikning poetik funksiyasi oʻzgaradi: u maʼlum xalqning urf-odati bilan cheklanmay, urf-odatning ichidagi umuminsoniy gʻoyani (rahm, adolat, barobar dard) koʻrsatadi. Natijada balladada milliy kolorit “yangi milliy shakl” yaratish emas, axloqiy universallikni mahalliy muhitda koʻrsatish vositasiga aylanadi.[4]

Quyidagi jadval balladada milliylikni beruvchi asosiy komponentlar va ularning poetik funksiyalarini umumlashtiradi (misollar matndan qisqa parchalar sifatida keltirildi).

Komponent	Poetik funksiya	Matndan qisqa misol
Toponim/makon	Mahalliy kolorit, realizm, yaqinlik	“Shahrixon yoʻllarida”
Mahalla psixologiyasi	Jamoaviy hamjihatlik, axloqiy kodeks	“Bizning musofir mehmon?”
Marosim/eʼtiqod	Begona–oʻz qarama-qarshiligini yumshatish	“Xristiyan mozori” / “musulmon mozori”
Ramz: tugunchak	Iztirobni jismoniyashtirish, drammatizm	“Kichkina bir tugunchak...”
Tabiat motivlari	Psixologik parallelizm, umid ritmi	“Qorongʻilik yoʻqolib...”

Xulosa

Tahlil shuni koʻrsatadiki, “Raksananing koʻz yoshlari” balladasida milliylik poetik tasvirning ichki tizimi sifatida ishlaydi. U makon (Shahrixon, mahalla), marosim (mozor, duo), xalqona leksika va ramziy detallar (tugunchak, tuproq, tong) orqali badiiy butunlikka aylanadi.1

Asosiy natijalar:

- Milliylik birinchi navbatda makon va mahalla dinamikasi orqali “koʻrinadi”: tor koʻchalar, soʻy, mozor – milliy muhitning tayanch lokuslari.

- Sora va nuroniy chol obrazlari oʻzbek mentalitetining muruvvat va bagʻrikenglik fazilatlarini dramatik vaziyatda ochadi.

- “Mozor” motivi diniy farqlanishni keskinlashtirmaydi; aksincha, urush fojiasi fonida umumiy insoniy dardni birlashtiradi.

- Poetik detallar (tugunchak, shabnam–yosh, tong–quyosh) milliy tabiat tasavvuri bilan psixologik tasvirni uyg'unlashtiradi.

- Balladada milliylik va umuminsoniylik antagonizm emas: milliy axloqiy qadriyatlar umuminsoniy hamdardlikning mahalliy ko'rinishi sifatida talqin qilinadi.

Shu jihatdan ballada bugungi adabiyotshunoslik uchun ham muhim: u milliylikni faqat etnografik rang sifatida emas, balki badiiy matnning ma'no yaratuvchi mexanizmi sifatida tushunish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Olimjon H. Tanlangan asarlar. – Toshkent: O'zSSR Davlat nashriyoti, 1951. – 561 b.
2. Mirvaliyev S. O'zbek adiblari (xrestomatiya). – Toshkent: "Fan", 1993. – 157 b.
3. Ulug'ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi: darslik. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. – B. 77–78.
4. Narbekova R.U. "Badiiy tarjimada milliy ruhiyatni ifodalash" (ilmiy-ommaviy maqola) // JDPU rasmiy sayti. – 09.04.2023. Murojaat sanasi: 18.02.2026. Manba: <https://jdpu.uz/badiiy-tarjimada-milliy-ruxiyatni-ifodalash/>.